

## **O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar to‘g‘risida MA’LUMOT**

Universitetda joriy yilning yanvar oyida ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishida bir qator amaliy ishlar tashkil etildi.

Jumladan, joriy yilning 8-yanvar kuni Ingliz tili uchunchi fakulteti talabalari o‘rtasida 14- yanvar Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Zakovat intelektual o‘yini” tashkil etildi. G‘olib bo‘lgan guruhlar taqdirlandi.

[https://t.me/uzswlu\\_mmb/31002](https://t.me/uzswlu_mmb/31002)

Joriy yilning 9-yanvar kuni Rus filologiyasi fakulteti talabalari “G‘alaba muzeyi” da tadbir tashrif buyurishdi. Tashrif davomida talabalar O‘zbekiston Respublikasi tarixining qahramonlik sahifalariga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar bilan tanishishdi. Ko‘tarinki va vatanparvar ruhda bo‘lib o‘tdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31014](https://t.me/uzswlu_mmb/31014)

Joriy yilning 9-yanvar kuni Ingliz tili 1-fakultetida 5 muhim tashabbusning 4-yo‘nalishi kitobxonlik bo‘yicha davra suhbat tashkil qilindi. Suhbat davomida 2407-guruh talabasi, “Yosh kitobxon” tanlovi Respublika bosqichi 2-o‘rin sohibasi Qalandarova Hulkaroy tomonidan yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish, kitobning kundalik hayotidagi o‘rni haqida nutq so‘zlandi. Tadbir ishtirokchilari o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31032](https://t.me/uzswlu_mmb/31032)

Joriy yilning 9-yanvar kuni Rus filologiyasi fakulteti tyutorlari o‘zlariga biriktirilgan talabalar bilan birligida 14-yanvar “Vatan himoyachilari kuni” va O‘zbekiston Respublikasi “Qurolli kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi” munosabati bilan “Qurolli kuchlar davlat muzeyi”ga ekskursiya uyushtirishdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31043](https://t.me/uzswlu_mmb/31043)

Joriy yilning 10-yanvar kuni Rus filologiyasi fakultetida talabalar o‘rtasida profilaktik ishlar bo‘yicha tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirni Sh.Bekmetov va M.Nurmuhamedova tashkillashtirib, talabalar bilan universitet nizomiga rioya qilish, kiyinish qoidalari, kiberxavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda qanday harakat qilish lozimligi kabi mavzularda suhbatlar o‘tkazildi. Talabalarga bunday vaziyatlarda darhol universitet profilaktika inspektorlariga murojaat qilish tavsiya etildi. Tadbir talabalar ongini oshirish va universitet intizomini mustahkamlashga qaratilgan edi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31040](https://t.me/uzswlu_mmb/31040)

Joriy yilning 10-yanvar kuni universitetda 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan tadbir tashkil etildi.“Yangi O‘zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri” nomli mazkur bayram dasturini universitet rektori o‘z kirish so‘zi bilan ochib berdi. Shuningdek, yurtimizning barcha jasur o‘g‘lonlarini bayram bilan samimi tabrikldi. Dasturda Mudofaa Vazirligining Faxriylar kengashi raisi A.Navruzov ham ishtirok etib, nutq so‘zlandi. Mashhur raqs jamoalari, ansambllar tomonidan ijro etilgan raqslar, iste’dodli san’atkorlarning kuy-ko‘shiqlar, qolaversa, talabalar tomonidan taqdim etilgan sahna ko‘rinishlari tadbiriga o‘zgacha shukuh baxsh etdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31053](https://t.me/uzswlu_mmb/31053)

Joriy yilning 11-yanvar kuni Talabalarni vatanparvarlik, ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida Ingliz filologiyasi fakulteti ma’sullari talabalar bilan “Qurolli kuchlar muzeyi”ga tashrif amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga qarashli ushbu muzeyda 10 mingdan ortiq eksponatlar mavjud

bo‘lib, har bir buyumning tarixi talabalarda chuqur taasurot qoldirdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31065](https://t.me/uzswlu_mmb/31065)

Joriy yilning 11-yanvar kuni 14-Yanvar Vatan Himoyachilari kuniga bag‘ishlab Ingliz filologiyasi fakulteti mas’ullari va talabalari O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Moddiy-Texnik Ta’minot Markaziy bazasi qo‘mondonligiga tashrif buyurishdi. Harbiy xizmatchilarda ingliz tili savodxonligini shakllantirish, ularda Vatanga bo‘lgan muhabbatini yanada oshirish maqsadida turli xil ko‘ngilochar o‘yinlar, viktorinalar, raqs hamda jilvakor navolardan o‘tkazilgan tadbir ko‘tarinki ruhda bo‘lib o’tdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31071](https://t.me/uzswlu_mmb/31071)

Joriy yilning 11-yanvar kuni Ingliz tili 1-fakulteti tyutorlari tomonidan o‘ziga biriktirilgan guruh talabalar bilan birligida 14-yanvar “Vatan himoyachilari kuni” va O‘zbekiston Respublikasi “Qurolli kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi” munosabati bilan “Qurolli kuchlar davlat muzeyi”ga tashrif uyshtirildi. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga qarashli ushbu muzeyda 10 mingdan ortiq eksponatlar mavjud bo‘lib, talabalar qiziqarli ma’lumotlarga ega bo‘lishdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31083](https://t.me/uzswlu_mmb/31083)

Joriy yilning 11-yanvar kuni Tarjimonlik fakulteti Tabiiy fanlar kaferdasi tomonidan 11-yanvar “Qo‘riqxonalar va milliy bog‘lar kuni” munosabati bilan tadbir tashkil etildi. Shuningdek, sana munosabati bilan postlar e’lon qilinib, videoroliklar tayyorlandi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31087](https://t.me/uzswlu_mmb/31087)

Joriy yilning 13-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Yangi O‘zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!” shiori ostida tantanali tadbir tashkil etildi. Unda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rahbariyati, Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi, O‘zbekiston Milliy universiteti hamda universitet qoshidagi harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi rahbarxodimlari, tegishli mas’ullar va harbiylar ishtiroy etdi. O‘zbekiston Milliy universitetida o‘tkazilgan harbiy tadbirda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining “Qalqon” jamoasi ham o‘z chiqishlari bilan ishtiroy etdi. Tadbir parad bilan boshlandi. Unda harbiy xizmatchilar ishtiroy etib, turli xil tryuklar va ko‘rgazmali qurollar bilan tomoshabinlarga ajoyib chiqishlarni taqdim etdilar. Tadbirga tashrif buyurgan san’atkorlar ham o‘z chiqishlari bilan barchani tabrikladi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31104](https://t.me/uzswlu_mmb/31104)

Joriy yilning 13-yanvar kuni Ingliz tili 3-fakulteti tyutorlari 1-kurs talabalar bilan birligida “G’alaba bog‘iga” tashrif buyurishdi. Tashrif davomida talabalar O‘zbekiston Respublikasi tarixining qahramonlik sahifalariga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar bilan tanishishdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31119](https://t.me/uzswlu_mmb/31119)

Joriy yilning 14-yanvar kuni universitetda 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligiga bag‘ishlangan tadbir bo‘lib o’tdi. Tadbirda rektor Ilhomjon Tuxtasinov, universitet rahbariyati vakillari, harbiy xizmatni o‘tagan talabalar va “Qalqon” guruhi a’zolari ishtiroy etishdi. Tadbir avvalida universitet rektori Ilhomjon Tuxtasinov so‘zga chiqib, barcha universitet a’zolarini bayram bilan tabrikladi va Vatan himoyachilarining shonli xizmatlarini ta’kidlab o’tdi. Shundan so‘ng, universitet bayrog‘ini ko‘tarish marosimi bo‘lib o’tdi. So‘ngra harbiy parad va ko‘rgazmalar tashkil etildi. Ishtiroychilar

o‘zlarining harbiy ruhlarini namoyish etib, yurt tinchligi va harbiy xizmatning ahamiyati haqida nutqlar so‘zlashdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31137](https://t.me/uzswlu_mmb/31137)

Joriy yilning 14-yanvar kuni Ingliz filologiyasi fakultetida 14-yanvar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Yangi O‘zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbirda fakultet dekani G.Ergasheva, polkovnik Komil Nasirov, Yunus Rajabiy nomidagi Respublika maqomchilar ko‘rik tanlovi sovrindori xonanda B.Nurmuxamedov, Sh.Xayrullaev hamda Respublika musiqa va san’at texnikumi ijodkor o‘qituvchi va o‘quvchilari ishtirok etishdi. Tadbir avvalida parad namoyish etildi. Unda harbiy xizmatchilar ishtirok etib, turli xil tryuklar va ko‘rgazmali qurollar bilan tomoshabinlarga ajoyib chiqishlarni taqdim etdilar. Tadbirga tashrif buyurgan san’atkorlar ham o‘z chiqishlari bilan barchani tabrikladi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31151](https://t.me/uzswlu_mmb/31151)

Joriy yilning 14-yanvar kuni Roman-german filologiyasi fakulteti dekan muovini A.Mallayev tashabbusi bilan harbiy sport turlari bo‘yicha talabalar o‘rtasida sport tadbirlari tashkil etildi. Mazkur harbiy-sport tadbirida talabalar faol ishtirok etib, sportning bir nechta turlaridan o‘zlarining kuch va qobiliyatlarini namoyish etdilar. Talabalar o‘zaro raqobatlashib, jamoaviy ruhda qatnashdilar va har bir ishtirokchi o‘zining eng yaxshi natijalarini ko‘rsatishga intildilar. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31163](https://t.me/uzswlu_mmb/31163)

Joriy yilning 14-yanvar kuni universitet psixolog Z.Xayrullayeva hamda Ingliz tili 3-fakulteti tyutori N.Xodjayeva o‘ziga biriktirilgan guruh talabalariga, talabalar o‘rtasida nizolarga sabab bo‘ladigan va shaxs ruhiyatiga salbiy ta’sir qiladigan vaziyatlar bo‘yicha profilaktik ishlarni olib borish, giyohvandlikka, yengil hayotga, chekishga va alkogolizmga, azart o‘yinlarga hamda kompyuter o‘yinlariga tobelik, ommaviy madaniyatga qarshi targ’ibot ishlarni kuchaytirish maqsadida seminar trening o‘tkazildi. Talabalar o‘zlariga kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni bilib oldilar. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31179](https://t.me/uzswlu_mmb/31179)

Joriy yilning 15-yanvar kuni Ingliz tili 1-fakultetida 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tadbiri bo‘lib o’tdi. Tadbirni fakultet dekani A.Yuldashev ochib berdi. Tadbir davomida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari haqida ma’lumotlar berildi. Tadbir yoshlar bilan ishslash bo‘yicha dekan muovinlari va tyutorlar tomonidan tashkil etildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31185](https://t.me/uzswlu_mmb/31185)

Joriy yilning 15-yanvar kuni universitetda “Parij-2024” Paralimpiyadasi kumush medali sovrindori Ro‘za Qo‘zieva va Dzyudo bo‘yicha O‘zbekiston championi Abdulla Tangriev ishtirokida davra suhbati bo‘lib o’tdi. Tadbirda universitet rektori Ilxomjon Tuxtasinov ishtirok etib, yoshlarni sportga rag‘batlantirish, Vatanparvarlikni rivojlantirish va milliy g‘ururni oshirish, shuningdek, O‘zbekiston sportidagi yuksak yutuqlarni davom ettirish, yoshlarni ilmiy va ma’naviy rivojlantirish borasidagi maqsadlar haqida o‘z fikrlarini bildirdi. Tadbir davomida ishtirokchilar sport va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar va rag‘batlar haqida bat afsil so‘zlab berdi. Uchrashuv so‘ngida ishtirokchilar tashakkurnoma va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31192](https://t.me/uzswlu_mmb/31192)

Joriy yilning 15-yanvar kuni Rus filologiyasi fakulteti tyutori M.Yuldasheva o‘ziga biriktirilgan guruh talabalarini birgalikda “G’alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi va

uning huzurida qad rostlagan “Shon sharaf” muzeylariga kichik ekskursiya tashkil etildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31204](https://t.me/uzswlu_mmb/31204)

Joriy yilning 15-yanvar kunida Ingliz tili 3-fakulteti rahbariyati hamda fakultet yoshlar ittifoqi hamkorligida 14-yanvar “Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan “Har bir yurakda Vatan! Har bir qalbda himoya!” shiori ostida davra suhbat tashkil etildi. Suhbatda Uchtepa tumani 3-sonli ichki ishlar bo'limi Huquqbuzarliklar profilaktikasi xotin qizlar masalasi bo'yicha katta inspektori Katta leytenant Xudjayeva Gulora Xodjayazovna Uchtepa tumani IIO FMB 4-IIB HPB XQMB katta inspektori mayor Xakimova Gulchexra Tursunovna Ishtirok etishdi. Suhbat davomida talabalar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob olishdi. Suhbat mazmunli va qiziqarli bo'lib o'tdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31220](https://t.me/uzswlu_mmb/31220)

Joriy yilning 15-yanvar kuni Rus filologiyasi fakultetda talabalar o'rtasida mashhur Counter-Strike 1.6 o'yinida qiziqarli kibersport turniri bo'lib o'tdi. Turnir davomida ishtirokchilar o'z mahorati, tezkorligi va strategik fikrlashini namoyish etib, haqiqiy jamoaviy ruhni his qilishdi. Har bir o'yin nafaqat qiziqarli va hayajonli, balki esda qolarli lahzalarga boy bo'ldi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31228](https://t.me/uzswlu_mmb/31228)

Joriy yilning 16-yanvar kuni kuni Ingliz tili 2-fakulteti tyutori X.Madaminova va universitet psixologi Z.Xayrullayeva birgalikda psixologik trening o'tkazildi. Treningda talabalar faol qatnashdi. Xotin-qizlarning psixologik salomatligini muhofaza qilish, ularning barqaror ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash, ijtimoiy reabilitatsiya qilish, turli xil zo'ravonlik ko'rinishlarining oldini olish, o'z joniga qasd qilish holatlarini barvaqt aniqlash va ularga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish mavzularida treninglar tashkil etilmoqda. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31233](https://t.me/uzswlu_mmb/31233)

Joriy yilning 17-yanvar kuni Ingliz tili 1 fakulteti tyutorlari tomonidan Zakovat ko'chasi 4-uyda joylashdan 3-talabalar turar joyida yashovchi talabalar bilan “Talabalik oltin davrim” nomli davra suxbati o'tkazildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31239](https://t.me/uzswlu_mmb/31239)

Joriy yilning 17-yanvar kuni Ingliz tili 2-fakulteti tyutori M.O'tbosarova o'ziga biriktirilgan talabalar bilan Tashkent city mallga borishdi. Yuqori kayfiyatda bo'lib o'tgan sayohat davomida talabalar bilan yaqindan suhbat qurilib, ularning muammolarini o'rgandi. Bunday turdag'i tadbirlar talabalar orasida birdamlikni, jamoaviylikni oshirishga qaratilgan. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31245](https://t.me/uzswlu_mmb/31245)

Joriy yilning 17-yanvar kuni Toshkent shahar “Bilim” Axborot-kutubxona markazida “Kitobxon onalar kuni” doirasida O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoira, adiba Tursunoy Sodiqova hayoti va ijodi haqida davra suhbat hamda “Gul fasli” she'riy to'plami va “Dildagi dur” kitoblari taqdimoti bo'lib o'tdi. Ushbu tadbiriga Chilonzor tuman Mahallalaridan Oqila ayollar harakati a'zolari, Buvijonlar maktabi rahbarlari va Ingliz tili uchinchi fakulteti tyutori Sh.Hamdamova o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professor o'qituvchisi X.Xidirov hamda 4-kurs 2118-guruh talabalari tashrif buyurishdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31276](https://t.me/uzswlu_mmb/31276)

Joriy yiling 17-yanvar kuni Ingliz tili 1-fakultetida fakulteti Xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi M.Aripova, universitet psixologi Z.Xayrullayeva hamda fakultet tyutori N.Islomova tashabbusi bilan 3-bosqichda tahsil olayotgan oilali talaba-qizlar ishtirokida “Oiladagi shaxslararo munosabatni

muvofiglashtirishning psixoterapevtik vositalari” mavzusida psixologik trening tashkil etildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31272](https://t.me/uzswlu_mmb/31272)

Joriy yilning 17-yanvar kuni Ingliz tili 2-fakulteti tyutori M.O‘tbosarova o‘ziga biriktirilgan talabalar bilan "Temuriylar" muzeyiga tashrif buyurdi. Muzeyni tomosha qilish bilan birga talabalar Temuriylar tarixi haqida turli ma’lumotlarga ega bo‘ldilar. Bu nafaqat Temuriylar tarixi balki, O‘zbekiston tarixining ajralmas qismidir. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31286](https://t.me/uzswlu_mmb/31286)

Joriy yilning 17-yanvar Ingliz tili ikkinchi fakulteti tyutori M.Yuldasheva o‘ziga biriktirilgan 4-bosqich talabalari bilan O‘zbekiston davlat drama teatrida namoyish etilgan "Jamila" spektakli tomoshasida ishtirot etishdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31292](https://t.me/uzswlu_mmb/31292)

Joriy yiling 17-yanvar kuni Rus filologiyasi fakultetida professor Nazrulla Jo‘rayev bilan mazmunli davra suhbati bo‘lib o‘tdi. Tadbirning asosiy mavzusi talabalarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish va ilmiy saviyani ko‘tarishga qaratildi. Davra suhbati davomida professor Jo‘rayev kitob o‘qishning ahamiyati, inson hayotidagi o‘rni hamda zamonaviy yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish borasida o‘z fikrlarini bildirib o‘tdi. Shu bilan birga, talabalarga qimmatli tavsiyalar va kerakli motivatsion maslahatlar berildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31255](https://t.me/uzswlu_mmb/31255)

Joriy yiling 18-yanvar kuni Ingliz tili ikkinchi fakulteti tyutorlari o‘ziga biriktirilgan talabalar bilan Yunusobod sport majmuasida bo‘lishdi. Tadbir talabalar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, madaniy hordiq chiqarish hamda sportga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish jarayonida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, talabalar sport majmuasida qizlar o‘rtasida o‘tkazilayotgan futzal o‘yinlarini tomosha qilishdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31268](https://t.me/uzswlu_mmb/31268)

Giyohvandlikka qarshi birgalikda kurashamiz! Toshkent shahrida “Xavfsiz va sog‘lom poytaxt” oyligi doirasidagi tezkor-profilaktik tadbirlar davom etmoqda. Shu munosabat sabab yoshlar bilan targ‘ibot-tashviqot uchrashuvlari tashkil etilib, ularga giyohvandlik illatining salbiy jihatlari, sog‘liq va ruhiyatga zararli ta’sirlari, giyohvandlik bilan shug‘ullanishning huquqiy oqibatlari haqida ma’lumotlar taqdim etilmoqda. Shunday uchrashuvlardan biri joriy yilning 19-yanvar kuni Uchtepa tumani IIO FMB tomonidan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabalari bilan tashkil etildi. Unda universitet rahbariyati vakillari ham ishtirot etdi. Uchrashuvda so‘zga chiqqan tuman IIO FMB boshlig‘i polkovnik Dilmurod Mirsadikov o‘z nutqida jamiyatning global muammolaridan biri giyohvandlik ekanligi, butun dunyoda bo‘lgani kabi poytaxtda ham huquq-tartibot idoralari xodimlari giyohvandlik, psixotrop moddalar va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi tinimsiz kurash olib borayotganligini ta’kidladi. Bu illatga qarshi kurashishning eng samarali usullaridan biri - giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirishdir. Bu yo‘nalishda ayniqsa yoshlar o‘rtasida profilaktika tushuntirish ishlarini kuchaytirish lozimligi ta’kidlandi. Shuningdek, uchrashuvda internet makonlarida giyohvandlik vositalarning noqonuniy savdosi bilan shug‘ullanuvchi guruh va kanallarga a’zo bo‘lmaslik, ular haqida biror ma’lumot bo‘lsa IIO ga xabar berish kerakligi ta’kidlandi. Qizg‘in o‘tgan tadbirda talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollariga to‘liq javoblar

olishdi. 250 nafar talaba 27 nafar professor-o‘qituvchilar qatnashgan tadbirda jami 200 ta flayer va bukletlar tarqatildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31307](https://t.me/uzswlu_mmb/31307)

Joriy yilning 19-yanvar kuni universitetda 310 kilogrammlik osh tarqatildi. Yangi 2025-yil boshlanishi, 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan talabalar turar joylarida yashayotgan 3 ming 300 talaba uchun jami 7 ta qozonda osh tarqatildi. Osh dasturxonida xorijiy professor-o‘qituvchilari, xalqaro talabalari ham ishtirok etib milliy qadriyatlarimizning o‘ziga xosliklaridan bahramand bo‘lishdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31317](https://t.me/uzswlu_mmb/31317)

Joriy yilning 19-yanvar kuni universitet 1-2-talabalar turar joylariga Ingliz tili ikkinchi fakulteti Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha dekan muovini Z.Xasanov va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha dekan maslahatchisi F. Ashurova birgalikda borib, tarbiyachi-pedagog M.Saburova bilan talabalarning xona tutishlarini baholashdi. Shu bilan birga talabalar bilan suhbatlashib, ularning ehtiyoji va shart-sharoiti o‘rganildi. O‘qiyotgan kitoblari haqida so‘raldi. Suhbat so‘nggida ularga odob-axloq, kiyinish madaniyati, gigiyena qoidalari haqida kerakli tavsiyalar berib o‘tildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31336](https://t.me/uzswlu_mmb/31336)

Joriy yilning 20-yanvar kuni Rus filologiyasi fakultetida universitet profilaktika inspektorlari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Tadbirning asosiy maqsadi – talabalarning xavfsizlik qoidalari haqidagi xabardorligini oshirish va kundalik hayotda ogohlilik ko‘nikmalarini shakllantirish edi. Inspektorlar talabalarga universitet hududida va undan tashqarida amal qilinishi kerak bo‘lgan shaxsiy xavfsizlik qoidalari haqida so‘zlab berdilar. Zamonaviy dunyoda uchraydigan turli firibgarlik turlari, jumladan, soxta xizmat vakillaridan kelgan telefon qo‘ng‘iroqlari, onlayn firibgarliklar, kiberhujumlar va ijtimoiy muhandislik usullari haqida batatsil ma’lumot berildi. Shuningdek, firibgarlik qurboni bo‘lib qolmaslik uchun qanday choralar ko‘rish kerakligi, shubhali vaziyatlarda qayerga murojaat qilish va potentsial xavflarga qanday to‘g‘ri munosabatda bo‘lish kerakligi bo‘yicha tavsiyalar berildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31349](https://t.me/uzswlu_mmb/31349)

Joriy yilning 20-yanvar kuni Rus filologiyasi fakulteti talabalarini Qatag'on qurbonlari muzeyiga tashrif buyurishdi. Ushbu tashrif talabalarga o‘tgan asrning og‘ir va fojeali tarixiy davrlarini chuqur his qilish va anglash imkonini berdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31352](https://t.me/uzswlu_mmb/31352)

Joriy yilning 21-yanvar kuni universitet rektori Ilxomjon Tuxtasinov universitetning Ingliz filologiyasi fakulteti talabalarini bilan uchrashuv o‘tkazdi. Ushbu uchrashuv talabalar bilan bevosita muloqot o‘rnatish, ularning ta’lim jarayoniga oid fikr va takliflarini tinglash hamda mayjud muammolarni hal etish maqsadida tashkil etildi. Unda nafaqat ilmiy va ta’lim masalalari, balki talabalar o‘rtasidagi ijodiy va madaniy salohiyatni namoyon etish imkoniyatlari ham muhokama qilindi. Tadbirda fakultetning ijodkor yoshlar ham o‘z chiqishlari bilan ishtirok etib, auditoriyaga o‘z san’at asarlarini taqdim etdi. Shuningdek, tadbirda qatnashgan ijodkor va sportchi talabalar o‘z chiqishlari bilan jamiyatda san’at va madaniyatning muhim o‘rni haqida so‘z yuritib, bu kabi uchrashuvlar yoshlarning nafaqat ilmiy, balki ijodiy faoliyatlarini ham qo‘llab-quvvatlash uchun juda muhim ekanligini ta’kidladilar. Uchrashuv yakunida, rektor Ilxomjon Tuxtasinov talabalar bilan doimiy aloqada bo‘lib, ularning

fikr va tashabbuslarini inobatga olishga tayyorligini ta'kidladi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31357](https://t.me/uzswlu_mmb/31357)

Joriy yilning 21-yanvar kuni Rus filologiyasi fakultetida universitetimiz profilaktika inspektorlari bilan muhim uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbirning asosiy maqsadi talabalarining xavfsizlik, mas'uliyat va sog'lom turmush tarziga bo'lgan e'tiborini oshirish edi. Inspektorlar narkotik moddalarni iste'mol qilishning zarari va uning nafaqat sog'liq, balki kelajakdagi faoliyat va hayot uchun oqibatlari haqida so'z yuritdilar. Shuningdek, xavfli vaziyatlarni qanday aniqlash va vaqtida yordam so'rash mumkinligi haqida foydali maslahatlar berildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31367](https://t.me/uzswlu_mmb/31367)

Joriy yilning 21-yanvar kuni Rus filologiyasi fakulteti talabalari, Rus adabiyoti o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi bilan birgalikda Temuriylar tarixi davlat muzeyi qiziqarli tashrif uyuştirdilar. Tashrif davomida talabalar Amir Temurning boy merosi, uning davlat boshqaruvidagi ulkan yutuqlari va o'z zamonasining madaniy va tarixiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan tanishdilar. Muzey eksponatlari nafaqat tarixiy faktlarni yoritdi, balki o'sha davrning ruhini his qilishga yordam berdi. Mazkur tashrif nafaqat talabalarining tarixiy bilimlarini boyitish, balki ularning ma'naviy dunyosini kengaytirish, milliy qadriyatlarni chuqurroq anglash va ularga hurmat uyg'otishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31371](https://t.me/uzswlu_mmb/31371)

Joriy yilning 21-yanvar kuni Xalqaro jurnalistika fakulteti talabalari "Shon-sharaf" davlat muzeyida bo'ldi. Fakultetning Siyosatshunoslik yo'nalishi 1-bosqich talabalari O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi G'alaba bog'i yodgorlik majmuasi "Shon-sharaf" davlat muzeyiga bordi. Muzeyda Ikkinchchi Jahan urushi manzaralari aks etgan tasvirlar, ashyolar bilan tanishib, urush naqadar vayronkor kuch ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilishdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31382](https://t.me/uzswlu_mmb/31382)

Joriy yilning 21-yanvar kuni O'zbekiston "Adolat" SDP Siyosiy Kengashi tomonidan "O'zbekiston — 2030" strategiyasining "Atrof-muhitni asrash va "Yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi muhokamasiga bag'ishlangan davra suhbat bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda Rus filologiyasi fakulteti talabalari va tyutorlari faol ishtirok etishdi. Tadbir davomida "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasidagi maqsadlar, atrof-muhit muhofazasi va "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Tadbir yoshlarni atrof-muhitni muhofaza qilishga bo'lgan mas'uliyatini oshirish va zamonaviy ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga undadi. Ishtirokchilar o'zlarining fikr va takliflari bilan faol qatnashib, mutaxassislar bilan fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ldilar. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31441](https://t.me/uzswlu_mmb/31441)

Joriy yilning 22-yanvar kuni Ingliz tili 1-fakulteti tyutori Ashirova Gulnora tashabbusi bilan IT yo'nalishi bo'yicha seminar-dars tashkil qilindi. Darsda 2337-guruh talabalari faol ishtirok etib, Power Point dasturidan foydalanan slaydlar yaratish va rasmlar chizishni o'rganishdi. Shuningdek, to'garak so'ngida o'zlarini qiziqtirgan savollarga tyutori tomonidan javob olishdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31374](https://t.me/uzswlu_mmb/31374)

Joriy yilning 22-yanvar kuni Ingliz tili birinchi fakultetida malakaviy pedagogik amaliyot bo'yicha talabalar bilan davra suhbat tashkil etildi. Suhbatda Ingliz tili nazariy aspektlari 1-kafedrasi o'qituvchilari, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini N.Lapasov, ilmiy ishlar bo'yicha dekan muovini

X.Shomuxammadov hamda fakultetning 3-bosqich talabalari ishtirok etdi. Ingliz tili nazariy aspektlari 1-kafedrasi mudiri M.Umarova talabalarga malakaviy amaliyot haqida batafsil ma'lumot berdi. Shuningdek, ularning amaliyotini yaxshi tashkillashtirish, talabalarga yengillik yaratish maqsadida Toshkent shahrida joylashgan maktablar bilan shartnomalar tuzildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31378](https://t.me/uzswlu_mmb/31378)

Joriy yilning 22-yanvar kuni universitet psixolog Sh.Bo'stonova hamda xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslaxatchilari Z.Bannopova, Z.Achilova, P.Azimovalar hamkorligida Oilali talabalar bilan davra suhbati tashkil etildi. Mehmon sifatida o'z tajribalari bilan Paxtakor MFY faollari hamda na'munali oila buvijonlari ishtirok etdilar.Maqsad: Oilaviy nizolar, tushummovchiliklarni, zo'ravovlik holatlarini hamda ajrimlarni oldini olish maqsadida mazkur davra suhbati tashkil etildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31388](https://t.me/uzswlu_mmb/31388)

Joriy yilning 22-yanvar kuni Uchtepa tumani IIO FMB tomonidan Giyohvandlikka qarshi birgalikda kurashamiz! Toshkent shahrida "Xavfsiz va sog'lom poytaxt" oyligi doirasidagi tezkor-profilaktik tadbir universitet talabalar turar joyida yashovchi talabalar bilan tashkil etildi. Unda yotoqxona pedagog xodimlari, talabalar ishtirok etishdi. Uchrashuvda so'zga chiqqan tuman IIO FMB rahbariyati xodimlari o'z nutqida jamiyatning global muammolaridan biri giyohvandlik ekanligi, butun dunyoda bo'lgani kabi poytaxtda ham huquq-tartibot idoralari xodimlari giyohvandlik, psixotrop moddalar va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi tinimsiz kurash olib borayotganligini ta'kidladi. Bu illatga qarshi kurashishning eng samarali usullaridan biri - giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirishdir. Bu yo'nalishda ayniqla yoshlar o'rtasida profilaktika tushuntirish ishlarini kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi. Shuningdek, uchrashuvda internet makonlarida giyohvandlik vositalarning noqonuniy savdosi bilan shug'ullanuvchi guruh va kanallarga a'zo bo'lmaslik, ular haqida biror ma'lumot bo'lsa IIO ga xabar berish kerakligi ta'kidlandi. Qizg'in o'tgan tadbirda talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollariga to'liq javoblar olishdi. 100 ga yaqin talaba ishtirok etgan tadbirda 100 ta flayer va bukletlar tarqatildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31392](https://t.me/uzswlu_mmb/31392)

Joriy yilning 22-yanvar kuni Xalqaro jurnalistik fakulteti talabaları Abdulla Qodiriy uy muzevida bo'ldi. O'rganishlar davomida, talabalar Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi haqida yanada to'liq ma'lumotlarga ega bo'ldi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31408](https://t.me/uzswlu_mmb/31408)

Joriy yilning 22-yanvar kuni Ingliz tili ikkinchi fakulteti tyutori M.Yuldasheva tomonidan o'ziga biriktirilgan guruh talabalariga "Buyuk o'tmishni, o'zlikni anglash mohiyati" mavzusida "Ma'rifat darsi" tashkil qilindi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31415](https://t.me/uzswlu_mmb/31415)

Joriy yilning 22-yanvar kuni Rus filologiyasi fakulteti talabaları va tyutorları bugun Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonaga tashrif buyurishdi. Ushbu tashrif davomida talabalar kutubxonaning boy adabiy merosi bilan tanishishdi, noyob kitoblar va qo'lyozmalarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Shuningdek, kutubxonaning zamonaviy o'quv zallari, elektron resurslari va ilmiy tadqiqot imkoniyatlari haqida ma'lumot olishdi. Tashrif davomida talabalar nafaqat ma'naviy boylik, balki motivatsiya va ilhom olishdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31445](https://t.me/uzswlu_mmb/31445)

Joriy yilning 22-yanvar sanasida Tarjimonlik fakultetida oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan tadbir tashkil etildi. Tadbir Tarjimonlik fakulteti xotin-qizlar masalari

bo'yicha dekan maslahatchisi F.Xabiyeva tashabbusi bilan tashkil etildi. Tadbirda Universitet psixologi Z.Xayrullayeva , O'zbekiston tarixi kafedrasi dotsentlari N.Bobojonova, N, Toliboyeva,Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasi dotsenti B.Xolbekova hamda fakultet tyutorlari ishtirok etishdi. "Sevimli qizim" shiori ostida tashkil etilgan tadbirda qaynona- kelin munosabatlarining o'ziga xos qirralari haqida ishtirok etgan mutaxassislar tomonidan kerakli tavsiya va maslahatlar berildi. Shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlari to'g'risida psixolog tomonidan qiziqarli ma'lumotlar talabalarga yetkazildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31463](https://t.me/uzswlu_mmb/31463)

Joriy yilning 23-yanvar Ingliz filologiyasi fakultetida guruh sardorlari bilan uchrushuv o'tkazildi. Uchrashuv ochiq muloqatda shaklida tashkil etilib, fakultet dekani G.Ergasheva boshchiligidagi yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovinlari, o'quv ishlari bo'yicha dekan muovini va ta'limning kredit tizimi bo'yicha yetakchi mutaxassis S. Bozorov ishtirok etishdi. Fakultet dekani tomonidan 2024-2025 o'quv yili birinchi yarimida talabalarning erishgan yutuqlari e'tirof etilib, yakuniy nazorat haftaligidagi jarayonlar, yangi semestrda o'quv jarayoni tashkil etilishi, belgilangan rejalar, fakultetdagi ma'nnaviy-ma'rifiy muhitni yanada yaxshilash hamda talabalar tomonidan Odob-axloq qoidalariga rioya etilishi kabi maslalariga alohida to'xtalib o'tildi. Talabalarning takliflari, ular duch kelayotgan muammolar tingladi hamda fakultet ma'sullari tomonidan savollarga javob berildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31481](https://t.me/uzswlu_mmb/31481)

Joriy yilning 23-yanvar Rus filologiyasi fakulteti talabalari va tyutorlari universitetning Kulol man markaziga tashrif buyurishdi va u yerda nafaqat kulolchilik san'ati tarixi va xususiyatlari bilan tanishishdi, o'z qo'llari bilan kulolchilik buyumlarini yasab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Markaz ustalarining yo'riqnomalari ostida ishtirokchilar katta qiziqish bilan loydan o'z ilk asarlarini yaratishdi. Ko'pchilik uchun bu hunarmandchilik bilan ilk marta tanishish bo'ldi va ularning ijodga bo'lgan ilhomini oshirdi hamda kulolchilik san'atiga yangicha nigoh bilan qarashga imkon berdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31488](https://t.me/uzswlu_mmb/31488)

Joriy yilning 23-yanvar kuni Roman-german filologiyasi fakulteti tyutori M.Abdurahmonova talaba-yoshlarni holidan xabar olish, muammolarini o'rganish maqsadida 6-sonli talabalar turar joyiga tashrif buyurdi. Talabalar turar joyida yashaydigan talaba yoshlarning yashash sharoitlari bilan tanishdi va ularning yashash sharoitlari o'rganildi. Tashrif davomida talaba-yoshlar bilan TTJ ichki-tartib qoidalariga shuningdek sanitariya-gigienaga rioya qilish va binoda mavjud sharoitlar va imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish bo'yicha hamda TTJga kirish bo'yicha belgilangan vaqtlardan kechikmasdan o'z vaqtida kelishlari kerakligi haqida tushuntirish ishlari olib borildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31500](https://t.me/uzswlu_mmb/31500)

Joriy yilning 23-yanvar kuni Ingliz tili 2-fakulteti tyutori M.O'tbosarova o'ziga biriktirilgan talabalar bilan Sergey Yesenin muzeyiga borishdi. Muzeyda shoir hayoti va ijodiga bog'liq ma'lumotlarni o'z ko'zlarini bilan ko'rib, o'zaro muhokama qilishdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31509](https://t.me/uzswlu_mmb/31509)

Joriy yilning 23-yanvar kuni Tarjimonlik fakulteti tyutori S.Tuxtasanova o'ziga biriktirilgan talabalar bilan madaniy hordiq olish maqsadida O'zbek milliy akademik drama teatriga tashrif buyurdi va "Skapenning nayranglari" teatirini tomosha qildilar. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31519](https://t.me/uzswlu_mmb/31519)

Joriy yilning 21-23-yanvar kunlari universitetning barcha fakultetlarida “Talant shou” ko‘rik tanlovlaringin saralash bosqichlari bo‘lib o‘tdi. Tanlovlar davomida iqtidorli talabalar o‘zlarining noyob iqtidorlarini “Milliy raqs”, “Milliy qo‘sish” va “Milliy cholg‘u asboblari” yo‘nalishlarida namoyish etdilar. Tadbirlar iliq va ilhomlantiruvchi muhitda o‘tdi, har bir ishtirokchi o‘z mahorati bilan tomoshabinlar va hakamlar hayratiga sabab bo‘ldi. Tanlov so‘ngida g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar universitet bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi va tashakkurnoma bilan taqdirlandi. “Talant Shou” – bu iste’dodli yoshlarning imkoniyatlarini kashf qilish va ularni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan yirik maydon. Bizning talabalar esa, haqiqatan ham, o‘zlarining kuchli ijodkor ekanligini yana bir bor isbotlashdi. Turli san’at yo‘nalishlarida o‘z mahoratlarini ko‘rsatgan talabalar xalqimizning boy madaniy merosini qayta tiklash, asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviyatini, xalq an’alarini va urf-odatlarini har tomonlama rivojlantirish, universitetda o‘tkaziladigan turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning yuqori saviyada tashkil etilishini ta’minlash maqsadida barcha ishtirokchilar o‘zlarining eng yaxshi chiqishlarini taqdim etishdi.

[https://t.me/first\\_faculty\\_official/3311](https://t.me/first_faculty_official/3311) [https://t.me/second\\_faculty\\_official/1405](https://t.me/second_faculty_official/1405)  
<https://t.me/thirdEnglishfaculty/12261> <https://t.me/englishphilologyfaculty/3545>  
<https://t.me/sharqfilologiyasiofficial> <https://t.me/rgffaculty/4394>  
[https://t.me/uzswlu\\_mmb/31446](https://t.me/uzswlu_mmb/31446) [https://t.me/xalqarojurnalistika\\_fakulteti/2604](https://t.me/xalqarojurnalistika_fakulteti/2604)

Joriy yilning 23-yanvar kuni universitet Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkilotining "Lider" qizlar, "Qizlarjon" klubi koordinatorlari ishtirokida psixologik trening tashkil etildi. Psixologik treningni universitet psixologi Z.T.Xayrullayeva olib bordi. "Jamoada me’yorlar, qoidalarni yaratish" mavzusida tashkil etilgan psixologik treningda Tanishuv, «Yaxshi yangiliklar to‘plami», «Guruh nima degani?», «Guruh qoidalari, me’yorlari, rollari» hamda Psixogimnastika mashg‘ulotlaridan keng foydalanildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31523](https://t.me/uzswlu_mmb/31523)

Joriy yilning 23-yanvar kuni universitet Xotin-qizlar maslahat kengashi a’zolari N.Djurayeva, M.Aripova, F.Ashurova va H.Nishanova tashabbusi bilan ingliz tili 2-fakulteti katta o‘qituvchisi N.Egamberdiyeva ishtirokida “Oila, talaba-qizlar bilan ishlash haftaligi” doirasida qaynona-kelin munosabatlariga bag‘ishlangan “Qaynonam onam - kelinim bolam” mavzusida davra suhbati tashkil etildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31548](https://t.me/uzswlu_mmb/31548)

Joriy yilning 24-yanvar kuni "Nuroniyarlari har tomonlama qo’llab quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo’shimcha chora -tadbirlar to’grisidagi" PQ-167-sonli qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida Ingliz tili 2-fakulteti Toshkent shahri Uchtepa tumanining "Jurjoniy" mahallasida istiqomat qiluvchi nuroniyalar hoidan xabar olishdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31532](https://t.me/uzswlu_mmb/31532)

Joriy yilning 24-yanvar kuni Roman-german filologiyasi fakulteti professor-o‘qituvchilari tomonidan yoshlar orasida milliy qadriyatlarimizni keng targ‘ib qilish va o‘zbekona kiyinish madaniyatini shakllantirish bo‘yicha qator targ‘ibot ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayon xotin-qizlar masalalari bo‘yicha dekan maslahatchisi Z.P.Achilova tashabbusi bilan tashkil etilmoqda. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31538](https://t.me/uzswlu_mmb/31538)

Joriy yilning 24-yanvar kuni Roman-german filologiyasi fakulteti nemis tili nazariy fanlar kafedrasi professor-o'qituvchilari tashabbusi bilan "Milliylikka targ'ib" tadbirdari doirasida "Milliy liboslar kuni" tashkil etildi. Asrlar davomida shakllangan tariximiz jilolori sanalmish madaniy merosimiz- o'zligimiz timsoli - milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylab kelajak avlodga etkazish barchamizning burchimizdir. Tadbir davomida milliy liboslarimizning betakrorligi va ularning zamonaviy talqinlari taqdim etildi va shu bilan birga talaba yoshlarimizga qadriyatlarimizning ahamiyati yana bir bor tushuntirildi.

[https://t.me/uzswlu\\_mmb/31546](https://t.me/uzswlu_mmb/31546)

Joriy yilning 24-yanvar kuni Xalqaro jurnalistika fakulteti Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 1-bosqich talabalari hamda tyutor Sh.Xo'janiyozova Temuriylar tarixi davlat muzeyida bo'ldi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31556](https://t.me/uzswlu_mmb/31556)

Joriy yilning 24-yanvar kuni Rus filologiyasi fakultetida Rus madaniyati markazi bilan hamkorlikda o'tkazilgan yorqin va ilhomlantiruvchi tadbir bo'lib o'tdi. Mazkur ajoyib tadbirni Rus adabiyoti va o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri Petruxina N.M. boshqardi. U rus madaniyatining jahon adabiyoti va san'ati uchun ahamiyati haqida katta ilhom bilan gapirib berdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31565](https://t.me/uzswlu_mmb/31565)

Joriy yilning 25-yanvar kuni Talabalar turar joylarida Xalqaro jurnalistika fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini D. Xoshimova, Xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi D. Fayziyeva hamda tyutorlar tomonidan talaba-qizlarning yashash sharoitlari o'rganildi. Qizlar bilan bo'lib o'tgan suhbatda yotoqxona ichki tartib qoidalari, ozodalik, xonadosh qizlar bilan yaxshi munosabatda bo'lish hamda texnika xavfsizligi haqida muloqotlar olib borildi.

[https://t.me/uzswlu\\_mmb/31552](https://t.me/uzswlu_mmb/31552)

Joriy yilning 25-yanvar kuni Ingliz tili 2-fakultetining Ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi Abduraimova Mehriniso tomonidan "Major themes in classical novels, Setting and Symbolism" mavzusida kitobxonlik to'garagining navbatdagi uchrashuvi o'tkazildi. Unda o'zbek va ingliz adabiyotidagi klassik asarlarning asosiy mavzulari, ularning umumiy jihatlari, asarlardagi ramziylik va tasviriylik xususiyatlari haqida suhbat olib borildi. Suhbat davomida qizg'in savol-javoblar o'tkazildi, talabalar o'zlari o'qigan klassik asarlar haqida o'zaro fikr almashishdi. Savol-javob jarayonida eng faol bo'lgan talaba sovg'a kitob bilan taqdirlandi. To'garakda Ingliz tilini o'qitish metodikasi N'2 kafedrasi professor o'qituvchilari ham ishtirok etishdi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31572](https://t.me/uzswlu_mmb/31572)

Joriy yilning 25-yanvar kuni Ingliz tili ikkinchi fakulteti tyutori M.O'tbosarova o'ziga biriktirilgan talabalar bilan madaniy hordiq chiqarish maqsadi bowlingga borishdi. Ushbu ko'ngilochar tadbir talabalarda katta taassurot qoldirdi.

[https://t.me/uzswlu\\_mmb/31576](https://t.me/uzswlu_mmb/31576)

Joriy yilning 25-yanvar kuni Ingliz filologiyasi fakulteti tomonidan Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag'ishlangan badiiy kechalar, davra suhbatlari hamda taniqli yozuvchilar bilan uchrashuvlar madaniy-ma'rifiy tadbirlar keng ko'lamda o'tkazildi. tashkil etildi. Bunday tadbirdarda Behbudiy asarlari, uning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan kitoblar muhokama qilindi, adiblar xiyoboniga tashrif uyuşhtirilib jamoat arbobining asarlari sahnalashtirildi.

[https://t.me/uzswlu\\_mmb/31579](https://t.me/uzswlu_mmb/31579)

Joriy yilning 25-yanvar kuni Tarjimonlik fakulteti dekani U.Yo'ldoshev hamda yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan muovini S.Kodirov talaba-yoshlarni holidan xabar olish, muammolarini o'rganish maqsadida talabalar turar joylariga tashrif buyurdilar. Talabalar turar joyida istiqomat qiladigan talaba yoshlarning yashash sharoitlari bilan tanishdi va ularning yashash sharoitlari o'rganildi. Tashrif davomida talaba-yoshlar bilan TTJ ichki-tartib qoidalariga shuningdek sanitariya-gigienaga rioya qilish va binoda mavjud sharoitlar va imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish haqida tushuntirish ishlari olib borildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31591](https://t.me/uzswlu_mmb/31591)

Joriy yilning 27-yanvar kuni talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, talabalar o'rtasida shaxmat va shashka musobaqalarini ommalashtirish maqsadida Roman- german filologoyasi fakulteti xotin qizlar masalalari bo'yicha dekan maslaxatchisi Z.Achilova tashabbusi bilan talabala qizlar o'rtasida "Sport sog'lom hayot garovi" mavzusida shaxmat va shashka musobaqasi tashkillashtirildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31587](https://t.me/uzswlu_mmb/31587)

Joriy yilning 28-yanvar kuni Ingliz filologiyasi fakulteti dekan muovinlari va xotin qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi hamda Universitet profilaktika inspektorlari bilan birgalikda "Ogohlik davr talabi" mavzusida tadbir o'tkazildi. Talabalarning xavfsizlik qoidalari haqidagi xabardorligini oshirish va kundalik hayotda ogohlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan tadbirda Inspektorlar universitet hududida va undan tashqarida amal qilinishi kerak bo'lgan shaxsiy xavfsizlik qoidalari haqida so'zlab berdilar. Zamonaviy dunyoda uchraydigan turli firibgarlik turlari, jumladan, soxta xizmat vakillaridan kelgan telefon qo'ng'iroqlari, onlayn firibgarliklar, kiberhujumlar va ijtimoiy muhandislik usullari haqida ma'lumot berildi. Shuningdek, firibgarlik qurboni bo'lib qolmaslik uchun qanday choralar ko'rish kerakligi, shubhali vaziyatlarda qayerga murojaat qilish va potentsial xavflarga qanday to'g'ri munosabatda bo'lish kerakligi bo'yicha tavsiyalar berildi. [https://t.me/uzswlu\\_mmb/31600](https://t.me/uzswlu_mmb/31600)